
Qirguli mavzeidagi "Do'stlik uyi"da navbatdagi sayyor qabul o'tkazildi
Shahar hokimligi tomonidan tashkillangan sayyor qabulda Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov, sektorlar rahbarlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalq qabulxonasining shahar bo'limi mudiri Tavakkaljon Rahimov, hokim o'rinbosarlari hamda korxonalar va tashkilotlar rahbarlari ishtirok etishdi.

Bugungi sayyor qabulda viloyat hokimi o'rinbosari Xojiqo'zjon Isaqov hamda viloyatdagi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari ham qatnashdilar. Qirguli mavzeidagi "Do'stlik uyi"ning faollar zalida oltmish nafardan ortiq fuqarolarning murojaatlari mas'ul rahbarlar ishtirokida o'rganildi. Yigirma nafarga yaqin fuqarolarning murojaatlari ijobiy hal qilindi.

Kelib tushgan murojaatlarni o'rganish va natijasi bo'yicha mualliflarga ma'lum qilish uchun masalaga daxldor xodimlar, korxonalar, tashkilotlar va bo'limlarga tegishli topshiriqlar berildi. Qabul so'ngida yuridik va jismoniy shaxslardan tushgan murojaatlarning o'rganilganlik holati hamda ijobiy hal etilishi bo'yicha tanqidiy tahlil qilindi.

2023-12-27 14:37:12